

## SHARTNOMASI №B 52

«24» yanvar 2022 yil

Termiz shaxri.

«Surxon Ta'minot Farm» MCHJ bundan buyon «Ta'minotchi» deb ataluvchi, raxbari A. Xudoyberdiyev Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi, bundan buyon «Iste'molchi» deb ataluvchi, raxbari A.N.Sattorov, Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan quyidagilar tugrisida shartnoma tuzadilar:

### 1. Shartnoma predmeti

1.1 «Ta'minotchi» «Iste'molchi» extiyoji uchun lozim bulgan tovar-moddiy boyliklarni yetkazib beradi, «Iste'molchi» esa tovar-moddiy boyliklarni kabul kilib, mazkur shartnoma shartlari asosida tulovlarni amalga oshiradi.

### 2. Tovar moddiy boyliklarning narxi va umumiy qiymati

- 2.1 Tovar moddiy boylikning qiymati Respublikamiz milliy valyutasi sumda belgilanib shartnomaga spetsifikatsiya «Ta'minotchi» va «Iste'molchi» tomonidan tasdiqlangan xolda ilova qilinadi.
- 2.2 Shartnoma umumiy summasi 17993730 (O'n etti million to'qiz yuz to'son uch ming etti yuz o'ttiz sum) (QQSsiz) sumni tashkil qiladi.
- 2.3 Tovar moddiy boyliklarning narxi va umumiy qiymati.
- 2.4 «Ta'minotchi» tovar moddiy boylikning qiymati narx oshganligi natijasida uzgarganda, «Iste'molchi»ga oldindan xabardor kilib, tovar moddiy boylikning uzgargan narxini asoslagan xolda sotadi.
- 2.5 «Iste'molchi» uzgargan narxlar asosida kushimcha tulovlarni byudjetda kursatilgan limit doirasida amalga oshiradi.

### 3. Tulov shartlari

- 3.1 «Iste'molchi» tovar moddiy boylikning tuliq qiymatini 30% miqdorda 3 bank kunida «Ta'minotchi»ning maxsus xisob raqamiga (sumda) oldindan tulovni amalga oshiradi.
- 3.2 Tovar moddiy boyliklar tuliq yetkazib berilgandan sung xisob faktura asosida 3 bank kunida qolgan 70% tulov «Ta'minotchi»ning maxsus xisob raqamiga utkazib beriladi.
- 3.3 «Iste'molchi» tomonidan mazkur shartnomaning 3.1. bandi talablari bajarilmagan taqdirda «Ta'minotchi» shartnomada kursatilgan maxsulotlarni bermaslikga xaqli buladi.
- 3.4 «Ta'minotchi» tomonidan tovar moddiy boyliklarni uz vaqtida yetkazib bermasa, buning natijasida ikkinchi tomon jiddiy zarar kursa bir tomonlama shartnomani bekor qilishga asos buladi

### 4. Tovar moddiy boylikni yetkazab berish tartibi

- 4.1. Tovar moddiy boylikni belgilangan vaqtida «Iste'molchi» tomonidan (manzil) joylashgan «Ta'minotchi» ning omboridan oladi.
- 4.2 Tovar moddiy boyliklarni yetkazib berish ushbu shartnomaning 3.1. bandiga asosan pul mablag'lari «Ta'minotchi» ning xisob raqamiga utkazilgandan sung 3 bank kunida bajarilishi shart.
- 4.3. Giyoxxvand, zaxarli va psixotrop dori-darmonlar «Iste'molchi» tomonidan tegishli ichki ishlar idorasini maxsus ruxsatnomalari bilan «Ta'minotchi» ning omborxonasidan olib ketiladi.
- 4.4. Ishonchnoma notugri rasmiylashtirilgan xolda «Ta'minotchi» tovar moddiy boyliklarni chiqarishdan bosh tortishga xaqli.
- 4.5 «Iste'molchi» tovar moddiy boyliklarni «Ta'minotchi»ning omboridan olib ketish xarajatlarini uz zimmasiga oladi.

### 5. Tomonlarning majburiyatlari

- 5.1 «Ta'minotchi» majburiyatlari:
  - Oldindan shartnomaning 3.1 bandini amalga oshirilgandan keyin, «Iste'molchi»ga shartnomada kursatilgan tovar moddiy boylikni yetkazib beradi;
  - «Iste'molchi»ga Uzbekiston Respublikasida Farmokologik ruyxatdan utgan, tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan, sifat, markirovka va uramli farmatsevtik va texnik talablarga javob beradigan xamda sifat sertifikatiga ega bulgan, ishlash muddati 50 % kam bulmagan dori darmonlar va tibbiyot maxsulotlarni ta'minlaydi.
  - «Iste'molchi»ga tovar moddiy boylikning servis kitobchasini, pasportini, schet-spravkasini va yaroqlilik sertifikatidan nusxa taqdim qilish;
  - Tovar moddiy boylikni yetkazib kelinganligi xaqida «Iste'molchi»ni xabardor qiladi.
- 5.2 «Iste'molchi» majburiyatlari:
  - Tovar moddiy boylikni qabul qilib olguncha «Ta'minotchi» ning omborxonasida obdon kuzdan kechiradi va uning sifatiga, butligiga, yaroqliligiga e'tibor beradi;
  - Agar tovar moddiy boylik talabga javob bermasa, ya'ni sifatsiz bulib is'temolga yaroqsiz bulsa «Iste'molchi» qabul qilmaslikga va urniga boshqasini almashtirib berishini talab qilishga xaqli buladi.
  - Tovar moddiy boylik «Ta'minotchi» omborxonasidan «Iste'molchi» tomonidan qabul qilingandan keyin javobgarlik tuliq «Iste'molchi»tomoniga utadi.

### 6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Tomonlar shartnomada kursatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan taqdirda Uzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli «Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi tugrisida»gi Qonunining asosan 25-32 bandlari buyicha javobgar buladilar.

- 6.2. Tulovlar muddati kechiktirilganda, «Iste'molchi» kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5 miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% dan oshmagan miqdorda penya tulaydi.
- 6.3. Tovar moddiy boylikni yetkazib berishni kechiktirganligi uchun «Ta'minotchi» kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5 % miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% dan oshmagan miqdorda penya tulaydi.
- 6.4. «Iste'molchi» tomonidan tovar moddiy boylik ishlatilishi jarayonida sodir etilgan qonun buzilish xollari uchun «Ta'minotchi» majburiyat olmaydi.
- 6.5 Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.
- 6.6 Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki bir taraflama uzgartirish kiritishga yul quyilmaydi.

#### 7. Nizolarni xal etish tartibi

- 7.1. Mazkur shartnoma buyicha tomonlar shartlarni bajarmagan taqdirda, javobgar tomon keltirilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplaydi.
- 7.2. Tomonlar urtasida shartnomani tuzishda, bajarilishida, uzgartirish va bekor qilishda yetkazilgan zararlarni qoplashda yuzaga keladigan nizolar ogoxlantirish va da'vo xatlari tartibida, agarda murosaga kelinmaganda viloyat Xujalik Sudi orqali xal qilinadi.

#### 8. Qushimchalar

- 8.1. Ikki tomonning uzaro yozma kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan uzgarish va qushimchalar qonuniy kuchiga ega buladi. Uzgarish va qushimchalar shartnomaga ilova qilinishi xam mumkin . Qilingan ilova ikki tomonning muxiri va imzosi bilan tasdiqlangan bulishi shart.
- 8.3. Bir tomonlama shartnomani bekor qilishga tulov shartlari bajarilmaganligi va maxsulot yetkazib berish tartiblari buzilganligi asos buladi.

#### 9. Fors- major

- 9.1 Agar shartnoma tuzilgandan sung ikki tomon uz majburiyatlarini gayri tabiiy xolatlar , suv toshqini , yongin, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarilmasa , xech qaysi tomon tula yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar xisoblanmaydilar.

#### 10. Shartnomaning amal qilish muddati

- 10.1. Mazkur shartnoma tomonlar tomonidan imzolaniб Uzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilik bo'limi tomonidan ruyxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va « 31 » dekabr 2022 yilgacha amalda buladi.
- 10.2. Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzilgan bulib ikki tomon uchun xam teng kuchga ega. bulib bank xisob-kitoblarini amalga oshirishga asos buladi.

#### 11. Tomonlarning yuridik manzili

**«Taminotchi »**  
NOMI: «Surxon Taminot Farm» MCHJ  
MANZIL: Termiz sh. Nurafshon k. 24- Z uy  
X\R: 20 208 000 305 112 582 001  
Maxsus X/R: \_\_\_\_\_  
INN: 306646583 OKONX: 71212  
Bank nomi: «Aloka Bank» Toshkent shaxri.  
Bosh Ofisi MFO: 00401  
RAXBAR: \_\_\_\_\_ A.Xudoyberdiev  
(imzo) (f.i.o)

**«Iste'molchi»**  
NOMI: Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi  
(byudjetdan mablag oluvchining nomi)  
Manzil: Bandixon maxallasi  
Tel./faks 76-37-41-648  
SH/xv 100022860222037072120054001  
byudjetdan mablag oluvchi STIRi: 200505608.  
OKONX: 86100.  
Gaznachilik bulinmasi nomi Surxondaryo viloyat .  
Gaznachilik boshkarmasi Amaliyot bulimi  
Gazna x/v: 23 402 000 300 100 001 010  
Bankning nomi: «Xisob-kitob kassa markazi»  
Toshkent. .  
MFO: 00014  
Gaznachilik bulinmasi STIRi: 201122919  
RAHBAR: \_\_\_\_\_ N.Sattorov  
(imzo)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN  
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**1. Loyihaning turi:** Xo'jalik shartnomasi. №B52-son

**2. Loyihaning nomi:** Bandixon tuman Tibbiyot birlashmasi bilan «Surxon Ta'minot Farm» MCHJ, o'rtasidagi shartnoma.

Shartnoma umumiy summasi 17993730 (O'n etti million to'qiz yuz to'son uch ming etti yuz o'ttiz sum) (QQSsiz) sumni tashkil qiladi.

Bandixon tuman Tibbiyot birlashmasi bilan «Surxon Ta'minot Farm» MCHJ, o'rtasidagi shartnoma o'rtasidagi xizmat ko'rsatish predmetidan iborat shartnoma shakli, mazmun mohiyati va yuridik texnika talablariga rioya etilishi jixatidan, O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga asosan, shartnoma predmeti, yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutilgan.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2022 yil 28 yanvarda kiritilgan.

**Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur shartnomasining loyihasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijasiga ko'ra yakuniy**

**X U L O S A**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga asosan ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi  
huzuridagi Bandixon tuman yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi boshlig'i**



**O'.T.Tog'ayev**

2022-yil 28-yanvar.

